

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMYIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMYIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

RO‘ZIYEVA MAVLUDA ANVAROVNA

**KO‘P QATLAMLI DISSIPATIV BIR JINSLI BO‘LMAGAN SILINDRIK
QOBIQDA XOS VA MAJBURIY TO‘LQINLARNING TARQALISHI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Fizika -matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

**Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по физико-математическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on physical and mathematical sciences**

Ro'ziyeva Mavluda Anvarovna

Ко'п qatlamli dissipativ bir jinsli bo'lmagan silindrik qobiqda xos va majburiy to'liqlarning tarqalishi.....3

Рузиева Мавлуда Анваровна

Распространение собственных и вынужденных волн в многослойной диссипативной неоднородной цилиндрической оболочке21

Ruzieva Mavluda Anvarovna

Propagation of specific and forced waves in a multilayer dissipative inhomogeneous cylindrical shell41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....46

**BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

RO‘ZIYEVA MAVLUDA ANVAROVNA

**KO‘P QATLAMLI DISSIPATIV BIR JINSLI BO‘LMAGAN SILINDRIK
QOBIQDA XOS VA MAJBURIY TO‘LQINLARNING TARQALISHI**

01.02.04 – Deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasi

**Fizika -matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/FM1310 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universitetiga bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) universitet veb-saytida (www.https://bstu.uz/) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Safarov Ismoil Ibrohimovich
fizika-matematika fanlari doktori

Rasmiy opponentlar:

Mavlanov To'liq Mavlonovich
texnika fanlari doktori, professor

Indiaminov Ravshan Shukurovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat texnika universiteti huzuridagi PhD.03/27.02.2021.FM.101.02 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil 28 oktabr soat 11:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 200100, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel.: (+99865) 223-78-84; faks: (+99865) 223-79-72, E-mail: bstu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№474 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: (200100, Buxoro shahri, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15. Tel.: (+99895) 604-44-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 14 oktabr kuni tarqatildi.

(2025 yil 29 avgustdagi №8 raqamli reyestr bayonnomasi).



M.X. Teshayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, fizika-matematika fanlari doktori(DSc).

R.A. Sabirova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori(PhD).

Z.I. Boltayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, fizika-matematika fanlari doktori(DSc), professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qovushqoq- elastik ko'p qatlamli konstruksiyalar elementlarining tebranishlari va tashqi yuklanish ta'sirida ro'y beradigan dinamik jarayonlarni o'rganib, qurilish va texnikaning har xil jabhalarida qo'llaniladigan muhandislik qurilmalarining ko'p qatlamli elementlari dinamikasini tadqiq etish, zamonaviy hisoblash metodikalari va algoritmlarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida ko'p qatlamli bir jinsli bo'lmagan silindrik qobiqlar suv osti kemalarida, uchuvchi apparatlarning ba'zi qurilmalarida, mexanik sistemalarning mustahkamligini oshirish uchun zamonaviy mashina elementlari va qurilmalari har xil dinamik (vibratsiyali va zarbali) kuchlar ostida ishlaydigan, energiya dissipativlik xususyatlarini hisobga oladigan kompozitsion materiallardan foydalanish va ularning dinamik xarakteristikalarini hisoblashning yangi usullarini amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Jahonda ko'p qatlamli konstruksiyalarni dinamik holatdagi kuchlanishlar konsentratsiyasining minimal taqsimlanishini ta'minlovchi ishonchli hisoblash metodikalari va algoritmini yaratishga yo'naltirilgan ilmiy tatqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada dinamik yuklanishlar ta'siri ostidagi qovushqoqlik xususiyatlari turlicha bo'lgan ko'p qatlamli konstruksiyalardagi dinamik jarayonlarni samarali hisoblash metodikasi va algoritmini ishlab chiqishga, turli tipdagi yer usti va yer osti muhandislik qurilmalari elementlarining kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatlarini aniqlashga yo'naltirilgan maqsadli ilmiy izlanishlarga alohida etibor qaratilmoqda.

Respublikamizda bu borada, qovushqoqlik parametrlarini hisobga olib konstruksiyalarning rezonans holatini baholash katta o'rin egallab, ushbu holat faqat dinamik jarayonida energiya dissipatsiyasi mohiyatini ko'p qatlamli muhit uchun tushunish orqali uni aniqlash usullarini ishlab chiqishga imkon beribgina qolmay, shu bilan birga dissipativ xarakteristikalarni aniqlash va optimallashtirish, shuningdek, strukturaviy bir jinsli bo'lmagan uzun qatlamli mexanik sistemalarning dinamik kuchlanish-deformatsiya holatini o'rganish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-maydagi PF-144-sonli "O'zbekiston Respublikasi seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"¹ gi Farmoni bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan dinamik holatdagi materiallar zo'riqishini hisoblashda matematik modellashtirish va foydalaniladigan materiallarning reologik xususiyatlarini hisobga olgan holda dasturiy ta'minot tizimlarini ishlab chiqishni keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son "Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish tizimi samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2017-yil 9-avgustdagi PQ-3190-son

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 30-maydagi PF-144-son "O'zbekiston Respublikasining seysmik xavfsizligini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

“O‘zbekiston Respublikasi hududi va aholisining seysmik chidamli qurilish va seysmologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar o‘tkazishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”² gi, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708 “Matematika sohasidagi ta‘lim va tadqiqotlar sifatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”³ gi, qarorlari hamda mazkur faoliyatlarga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika, inshootlar seysmodinamikasi va informatika” hamda XIV. “Seysmologiya, binolar va inshootlar seysmik xavfsizligi va qurilish” ustuvor yo‘nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganganlik darajasi. Quyidagi chet el olimlari qovushqoq elastik uch qatlamli silindrik jismlarda to‘lqin tarqalishini ilmiy tahlil qilishgan: A.A.Ilyushin, L.V.Brexovskix, A.S.Volmir, I.A.Viktorov, A.G.Gorshkov, M.D.Genkin, Y.I.Shemyakin, I.Ye.Troyanovskiy, I.A.Kiyko, A.N.Guz, V.T.Grinchenko, G.L.Komissarova, U.K.Nigul, V.G.Gogoladze, L.A.Molotkov, Yu.I.Novichkov, G.I.Petrashen, P.V.Krauklis, K.V.Frolov, A.N.Antonov, V.P.Matveenko, I.N.Shardakov, E.I.Starovoytov, N.S.Anofrikova, T.Miker, A.Meysler, R.M.Deyvis, R.Mitra, G.Kolskiy, J.D.Axenbax, B.V.Shafer, R.I.San va respublikamiz olimlaridan: X.A.Raxmatulin, M.T.Urazbayev, T.Sh.Shirinkulov, V.K.Kabulov, T.R.Rashidov, Y.N.Mubarakov, B.M.Mardonov, G.X.Xojmetov, A.A.Ishanxodjeyev, T.M.Mavlonov, M.M.Mirsaidov, K.S.Sultanov, Sh.M.Mamatkulov, F.B.Badalov, A.Abdusatorov, I.I.Safarov, X.Xudaynazarov, M.X.Teshayev, Sh.S.Yuldashev va boshqalar materialning reologik xususiyatlarini hisobga olgan holda turli xil ta’sirlarda (yoki tashqi yuk bo‘lmagan taqdirda) plastinka va qobiqli mexanik sistemalarining tebranishlarini ilmiy tahlil qildilar.

Hozirgi vaqtda qovushqoq-elastik mexanik sistemalarning dinamikasi bilan bog‘liq bir qator muammolar mavjudki (dissipativ jihatdan bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan), ularni hal qilish to‘lqin tarqalish muammolarining yangi qirralarini kashf etishga imkon beradi. Ishonchli usullar va algoritmlarni yaratish mashinasozlikda dinamik mustahkamlik va barqarorlikning ko‘plab muammolarini hal qilishga imkon beradi.

Shu bilan birga, hozirga qadar qovushqoq-elastik mexanik sistemalarda energiya dissipatsiyasi masalalarining nazariy asoslari, yechish usullari to‘laligicha ishlab chiqilmagan, nazariy masala matematik jihatdan qo‘yilmagan, sonli natijalar olish uchun yechish usullari va algoritmlar to‘la ishlab chiqilmagan. Qovushqoq-elastik mexanik sistemalar uchun yadroni va uning reologik parametrlarini tanlash, ularning chastota va dempferlash koeffitsiyentiga ta’sirini o‘rganishni talab qiladi va shuning uchun bu tizimli muammo qo‘shimcha ilmiy izlanishlar olib borishni talab etadi.

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-maydagi PQ-158-sonli “O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori

³O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4794-sonli qarori, «O‘zbekiston Respublikasi aholisi va hududining seysmik xavfsizligini ta‘minlash tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida» 30.07.2020 y.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat texnika universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 2021-2026 yillarga mo'ljallangan OT-F4-01 raqamli "Matematika va mexanikaning dolzarb muammolari" loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi - dissipativ bir jinsli bo'lmagan ko'p qatlamli silindrik jismlarga xos to'lqin va majburiy to'lqinlarning tarqalishini o'rganish metodikasi va algoritmini yaratish hamda mavjud nazariya ilmiy asoslarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

materiallarning qovushqoq-elastik xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'p qatlamli chekli uzunlikdagi silindrik jismlar (qobiqlar)ning xos va majburiy to'lqinlarini tarqalish masalalarining matematik qo'yilishi, yechish usullari va algoritmini ishlab chiqish;

strukturaviy dissipativ bir jinsli bo'lmagan mexanik sistemalar uchun, dispersion munosabatni chastotalarning bir nechta modalariga bog'liq qurish;

vibratsion yuklanishda rezonans holatni baholash uchun amplituda chastota orasidagi bog'lanishlarga mexanik va geometrik parametrlar ta'sirini baholash;

strukturaviy dissipativ bir jinsli bo'lmagan mexanik sistemalarning tashqi garmonik yuklanishidagi kuchlanishlar-deformatsiya holatini fiziko-mexanikaviy va geometrik parametrlarga bog'liqligini qiyosiy baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida ikki, uch va to'rt qatlamli uzun qovushqoq-elastik silindrik jism olingan.

Tadqiqotning predmetini qovushqoq-elastiklik xususiyatlarini hisobga olgan holda bir jinsli bo'lmagan mexanik sistemalarning dinamik nazariyasini rivojlantirish, hisoblash metodikasini hamda spektral masalalarni o'rganish uchun kompleks arifmetikaga asoslangan algoritmi ishlab chiqishni tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida dissertatsiya ishida olingan xususiy hosilali integro-differensial tenglamalar sistemasini yechish uchun "замораживание" usuli, o'zgaruvchilarni ajratish usuli, Myuller, Gauss, Laplas va Godunovning ortogonal progonka usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marta matereallarning qovushqoq-elastiklik xususiyatlarini Koltunov-Rjanitsin yadrosi orqali hisobga olgan holda ko'p qatlamli dissipativ bir jinsli bo'lmagan silindrik qobiqda xos va majburiy to'lqinlarninig tarqalishi masalalarini yechish metodikasi va algoritmi Laplasning integral almashtirishlari, muzlatish, Gauss va Myuller usullariga asoslanib ishlab chiqilgan;

ko'p (ikki, uch va to'rt) qatlamli dissipativ bir jinsli va bir jinsli bo'lmagan silindrik jismlarning birinchi, ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi xos tebranishlar kompleks chastotalarning haqiqiy qismlarining 5 % gacha farq qilishi, mavhum qismlarining esa radikal o'zgarishi topilgan;

dissipativ bir jinsli bo'lmagan to'rt qatlamli silindrik qobiq faza tezligining birinchi modasi to'lqin soni $0 \leq \eta \leq 0.1$ oralig'ida botiqligi, faza tezligining birinchi va uchinchi modalari to'lqin soniga amalda bog'liq bo'lmasligi, yuqori modalar $0.1 \leq \eta \leq 0.6$ oralig'ida to'lqin soniga bog'liq bo'lishi, $\eta > 0.6$ bo'lganda esa bog'liq bo'lmasligi dispersion munosabtlarni ifodalovchi transendent tenglama yechimlaridan topilgan;

ikki qatlamli qobiqning ko'chish amplitudasining ichki erkin sathidagi qiymati materealning qovushqoqlik xususiyatlariga bog'liqligini 10-15 % ni tashkil etishi, Kirxgof-Lyav va Timoshenko gipotezalari asosida olingan natijalar past chastotalarda 20 % gacha, yuqori chastotalarda esa farq 10 % bo'lishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

dissipativ bir jinsli bo'lmagan mexanik sistemalar uchun olingan natijalar turli parametrlarga bog'liq bo'lgan so'nish dekrementi koeffitsiyenti nomonoton bog'liqligi samarasidan yangi texnologiyalarning turli sohalarida ko'plab amaliy muammolarni hal qilish usullari taklif etilgan;

ishlab chiqilgan metodika va algoritmlar radioelektron uskunalari (REU) tebranishlarini kamaytirishga, shuningdek, mexanik sistemalarning rezonans sohalaridagi kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatlarini optimallashtirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi masalaning korrekt qo'yilishi, matematik munosabatlarning qat'iyligi, ma'lum va keng qo'llaniladigan yechish usullaridan foydalanish va masalalarning boshqa olimlar tomonidan olingan yechimlari bilan taqqoslashlar orqali izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ko'p qatlamli qovushqoq-elastik silindrik jismlarga xos va majburiy to'lqinlar tarqalishi nazariyasining rivojlanishiga hissa qo'shishidan iborat.

Dissipativ bir jinsli bo'lmagan mexanik sistemalarda dekrement so'nish koeffitsiyentining geometrik va fizik-mexanik parametrlarga bog'liq o'zgarishi munosabatidan o'rganilayotgan sohada energiyani boshqarish imkonini beradi. Bu esa titrashlarni kamaytirishda ham ishlab chiqilgan algoritmlar va dasturlardan foydalanishga imkon berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Uch qatlamli dissipativ bir jinsli bo'lmagan silindrik jismning chiziqli erkin va majburiy tebranishining ilmiy asoslarini hisobga olgan holda hisoblash usuli, algoritmi va dasturi bo'yicha olingan natijalar asosida:

dissipativ bir jinsli sistemalarda tebranish amplitudasini so'ndirish samarasidan Toshkent kimyo-texnologiya institutida OT-F4-01 "Qovushqoq suyuqlik oquvchi ko'p qatlamli kompozit quvurlar egri chiziqli bo'laklarining harorat va dinamik yuklanishlar ta'sirida chiziqli bo'lmagan dinamik kuchlanish-deformatsiya holatini o'rganish usullarini ishlab chiqish va nazariyasini rivojlantirish" mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda qo'llanilgan (Toshkent kimyo-texnologiya instituti 2025-yil 21-maydagi 1/01-1820 raqamli ma'lumotnomasi). Natijada, quvurning rezonans sohasidagi tebranishlarni boshqarish imkoniyati yaratilgan;

dissertatsiyada ishlab chiqilgan uzun qovushqoq-elastik to'ldiruvchili yupqa silindrik qobiqda to'lqin tarqalishi masalasini yechish metodikasidan Rossiya Fundamental tadqiqotlar jamg'armasining davlat ilmiy-texnika dasturi doirasida 2018–2020-yillarda bajarilgan РФФИ-18-48-240007 raqamli "Issiqlik elektrstansiyalari ishlab chiqarish-ekologik monitoringining axborot ishonchliligini oshirishning multiversion usuli" ("Мультиверсионный метод повышения информационной надежности производственно-экологического мониторинга тепловых электростанций") nomli fundamental loyihada foydalanilgan (Rossiya ilmiy va muhandislik jamoat birlashmalari ittifoqining Krasnoyarsk o'lkasi fan va

texnika uyining 2025-yil 10-iyuldagi 177-40-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqarish-ekologik monitoringning nazariy asoslarini yaratish va umumlashtirilgan sifat mezonini baholash uchun jarayonlarni matematik modellashtirish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 104 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchlilik asoslangan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ko'p qatlamli qovushqoq-elastik silindrik qobiqda xos va majburiy garmonik to'lqinlarning tarqalishini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida qovushqoq-elastik ko'p qatlamli silindrik qobiqqa xos to'lqinlar tarqalishi va tashqi yuklanishi natijasida hosil bo'ladigan dinamik jarayonlar holatini o'rganishga bag'ishlangan adabiyotlarning qisqacha tahlili keltirilgan. Adabiyotlarni tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalar chiqarilgan:


to'lqin dinamikasining qo'llanilayotgan usullari va masalalari, asosan, dissipativ bir jinsli, ya'ni qovushqoq elastik silindrik qobiq uchun o'rganilgan;

tahlil natijalar shuni ko'rsatadiki, garmonik to'lqinlar inshootlarga ta'sir qilganda murakkab to'lqin maydoni hosil qiladi, uni faqat to'lqin dinamikasini usullari bilan o'rganish maqsadga muvovifiq ekanligi ko'rsatilgan;

Bir qator hollarda, muhit bilan bog'lanishda inshootlariga garmonik to'lqin ta'sirlarida hosil bo'ladigan rezonans holatlarni hisoblashda muhitning qovushqoq-elastik xususiyatlarini hisobga olmaslik katta xatoliklarga olib kelishi mumkinligi ko'rsatib berilgan.

Dissertatsiyaning **“Ko'p qatlamli qovushqoq-elastik silindrik qobiqda xos to'lqinlarning tarqalishi va majburiy kuchlar ta'siridagi kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini topish masalalarining qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmi”** deb nomlangan ikkinchi bobida xos va garmonik to'lqinlarning ko'p qatlamli silindrik shakldagi qobiqlarga yuklanishi masalasining matematik qo'yilishi, yechish metodikasi va algoritmi keltirilgan. Bu bob ikki paragrafdan iborat bo'lib, birinchi paragrafida qovushqoq-elastik ko'p qatlamli silindrik qobiqqa to'lqin tarqalishi, ta'siri masalalarini qo'yilishi va yechish

metodikasi keltirilgan. Ikkinchi paragrafida esa ko‘p qatlamli qovushqoq-elastik silindrik qobiqqa garmonik to‘lqinlarning tarqalishi va tashqi yuklanishi ta‘sirida hosil bo‘ladigan dinamik jarayonni o‘rganish metodikasi va algoritmi keltirilgan. Faraz qilaylik silindrik koordinatalar sistemasida 1-rasmga keltirilganidek, ko‘p qatlamli silindrik qobiqlar sistemasi berilgan bo‘lsin. Shu ichma-ich joylashgan silindrik qobiqlar sistemasiga xos to‘lqinlar tarqalishi masalasini ko‘rib chiqamiz.



1-rasm. Ko‘p qatlamli silindrning hisob sxemasi

Silindr cheksiz ($-\infty < z < \infty$) va yarim ($0 < z < \infty$) cheksiz hollarini ko‘ramiz. Silindrning tashqi va ichki qavati yupqa silindrik qobiqdan iborat bo‘lishi mumkin. Silindr qatlamlarining to‘lqin tarqalishini ifodalovchi harakat differensial tenglamasi quyidagicha bo‘ladi:

$$(\tilde{\lambda}_j + 2\tilde{\mu}_j) \text{graddiv} \vec{u}_j - \tilde{\mu} \text{rotrot} \vec{u}_j = \rho_j \frac{\partial^2 \vec{u}_j}{\partial t^2}, (j = 1, 2, \dots, N) \quad (1)$$

bunda $\tilde{\lambda}_j$ va $\tilde{\mu}_j$ operator ko‘rinishdagi elastiklik modullari

$$\begin{aligned} \tilde{\lambda}_j f(t) &= \lambda_{0j} \left[f(t) - \int_{-\infty}^t R_{\lambda}^{(i)}(t - \tau) f(\tau) d\tau \right], \tilde{\mu}_j f(t) \\ &= \mu_{0j} \left[f(t) - \int_{-\infty}^t R_{\mu}^{(i)}(t - \tau) f(\tau) d\tau \right]; \end{aligned}$$

$f(t)$ – ixtiyoriy uzluksiz funksiya; $R_{\mu}^{(i)}(t - \tau)$ va $R_{\lambda}^{(i)}(t - \tau)$ –relaksatsiya yadrolari; λ_{0j}, μ_{0j} –qatlamlarning oniy elastiklik moduli. Qattiq kontaktlari uch xil kontakt sharti bajariladigan holatlar, ya’ni qattiq mahkamlanganlik, sirpanuvchi kontakt va yupqa massasiz qatlam bo‘lgan holatlardagi mexanik sistemaning dinamik xususiyatlari o‘rganilgan.

Agar ko‘p qatlamli silindrik qobiqning ichki va tashqi qobig‘i yupqa silindrdan iborat bo‘lsa, u holda gipotezalar (Krixgof-Lyav yoki Timoshenko) ga asoslangan yupqa qobiq tenglamasidan foydalanish mumkin, operator koeffitsiyentli qobiq tebranishlar tenglamasi quyidagicha bo‘ladi.

$$L\tilde{E}\vec{u} = \frac{(1-\nu_0^2)}{E_0 h_0} \vec{p} + \rho_0 \frac{(1-\nu_0^2)}{E_0} \left(\frac{\partial^2 \vec{u}}{\partial t^2} \right), (k = 1, 3, \dots, N) \quad (2)$$

Bunda: $\tilde{E}f(t) = E_{01} \left[f(t) - \int_{-\infty}^t R_E(t - \tau) f(\tau) d\tau \right]$, $R_E^{(i)}(t - \tau)$ –relaksatsiya yadrosi;

E_0 –qobiqning oniy elastiklik moduli, h_0 – qobiq qalinligi, ν_0 – Puasson koeffitsiyenti,

$$L = \begin{pmatrix} \frac{\partial^2}{\partial z^2} + \frac{1-\nu_0}{2R^2} \frac{\partial^2}{\partial \theta^2} & \frac{1+\nu_0}{2R} \frac{\partial^2}{\partial z \partial \theta} & \frac{\nu_0}{R} \frac{\partial}{\partial z} \\ \frac{1+\nu_0}{2R} \frac{\partial^2}{\partial z \partial \theta} & \frac{1+\nu_0}{2} (1+4a) \frac{\partial^2}{\partial^2} + (1+a) \frac{\partial^2}{\partial \theta^2} & \frac{1}{R^2} \frac{\partial}{\partial \theta} - a(2-\nu) \frac{\partial^3}{\partial z^2 \partial \theta} - \frac{a}{R^2} \frac{\partial^3}{\partial \theta^3} \\ \frac{\nu}{R} \frac{\partial}{\partial z} & \frac{1}{R^2} \frac{\partial}{\partial \theta} - a(2-\nu) \frac{\partial^3}{\partial z^2 \partial \theta} - \frac{a}{R^2} \frac{\partial^3}{\partial \theta^3} & \frac{1}{R^2} + a \left(\frac{\partial^2}{\partial z^2} + \frac{1}{R^2} \frac{\partial^2}{\partial \theta^2} \right)^2 \end{pmatrix},$$

$\vec{u} = \vec{u}(u_r, u_\theta, u_z)$ – qobiq o‘rta sirtining ko‘chish vektori (Kirxgof–Lyav gipotezalari o‘rinli bo‘lganda), ko‘pincha quyidagicha belgilash kiritiladi ($u_r = u$; $u_\theta = v$; $u_z = w$).

Agar silindrik jism qatlamlardan tashkil topgan bo‘lsa, u holda uning harakati tenglamalari (1) ko‘rinishda bo‘ladi. Qatlamlar orasida qattiq mahkamlanganlik sharti qo‘yiladi.

$$r = a_j: \quad \sigma_{rrj} = \sigma_{rr(j+1)}; \quad \sigma_{r\theta j} = \sigma_{r\theta(j+1)}; \quad \sigma_{rzj} = \sigma_{rz(j+1)};$$

$$u_j = u_{j+1}; \quad \vartheta_j = \vartheta_{j+1}; \quad w_j = w_{j+1}. \quad (3)$$

Qatlamlar orasida sirpanuvchanlik sharti (qatlamlar orasida qarshilik bo‘lmasa) qo‘yiladi

$$r = a_j: \quad \sigma_{rrj} = \sigma_{rr(j+1)}; \quad \sigma_{r\theta j} = \sigma_{rzj} = 0;$$

$$\sigma_{r\theta(j+1)} = \sigma_{rz(j+1)} = 0; \quad w_j = w_{j+1}. \quad (4)$$

Qatlamlar orasida massasiz element qo‘yilgan bo‘lsa, u holda chegaraviy (kontakt) sharti tekis deformatsiya holati masalasi uchun quyidagicha bo‘ladi

$$r = a_j: \quad \sigma_{rrj} = \sigma_{rr(j+1)}; \quad \sigma_{r\theta j} = \sigma_{r\theta(j+1)};$$

$$\begin{aligned} \sigma_{rrj} &= \bar{k}_r (u_{rj} - u_{r(j+1)}); \\ \sigma_{r\theta j} &= \bar{k}_\theta (u_{\theta j} - u_{\theta(j+1)}). \end{aligned} \quad (5)$$

Agar $r = a_1$ birinchi qatlam ichki sirti kuchlanishlardan ozod qilingan bo‘lsa, u holda quyidagicha shart qo‘yiladi:

$$r = a_N: \quad \sigma_{rrN} = 0; \quad \sigma_{r\theta N} = 0; \quad \sigma_{rzN} = 0. \quad (6)$$

Qobiqning erkin chekasi, ya’ni $z=0$ da

$$\sigma_{zzj} = \sigma_{rzj} = \sigma_{\theta zj} = 0. \quad (7)$$

Ba’zi holatda majburiy rezonans to‘lqini hosil qilish kerak bo‘lsa, $z=0$ da quyidagicha shart qo‘yiladi:

$$\sigma_{zz} = T_g(r) \cos p \theta e^{-i\omega t}, \quad \sigma_{rz} = \sigma_{\theta z} = 0. \quad (8)$$

Bunda $T_g(r)$ – masalada berilgan funksiya bo‘lib, masalaning qo‘yilishiga qarab tanlab olinadi. Agar $z \rightarrow \infty$ bo‘lsa, energiya manbai yo‘q degan shart yoki to‘lqin yutilishi sharti qo‘yiladi.

Faraz qilaylik, ko‘p qatlamli silindrik qobiq massasiz deformatsiyalanuvchi elementlar (inersiyasiz element)ga o‘rnatilgan bo‘lsin. Buni Vinkler asosi ham deyiladi. Silindrik quvur uchun silindrik koordinatalar sistemasida quyidagicha bo‘ladi:

$$q_{1r}^k = -\tilde{k}_r^k w^k; \quad q_{1\theta}^k = 0, \quad (9)$$

$$\tilde{k}_r^k [f(t)] = k_{r0}^k \left[f(t) - \int_0^t R_k(t - \tau) f(\tau) d\tau \right],$$

k_{r0}^k –oniy posteli koeffitsiyenti, $R_k(t - \tau)$ –relaksatsiya yadrosi. Agar Vinkler asosi olinganda (9) dan foydalanilganda asosning inersiya kuchini ham hisobga olganda quyidagicha aniqlanadi:

$$q_{1r}^k = -\tilde{k}_r^k w^k - m_f \ddot{w}^k, \quad (10)$$

bunda m_f –asosning samarali massasi. Agar muhitning quvurga beradigan ta'siri Pasternak modeli bo'yicha hisobga olinsa, u holda

$$q_r^k = -\tilde{k}_{r1}^k w^k - t_f \Delta w^k, \quad (11)$$

Bunda t_f – siljish koeffitsiyenti, \tilde{k}_{r1}^k –siqilishning operator koeffitsiyenti. Chegaraviy va kontakt shartlaridan tashqari boshlang'ich shartlar ham qo'yiladi

$$\vec{u}_j |_{t=0} = 0, \quad \frac{\partial \vec{u}_j}{\partial t} |_{t=0} = 0. \quad (12)$$

Bu yerda $\sigma_{rrj}, \sigma_{r\theta j}, \sigma_{\theta\theta j}, \sigma_{rzj}$ – kuchlanishlar tenzorining komponentlari, $u_{rj}, u_{\theta j}, u_{zj}$ –ko'chish vektorining komponentlari, ρ_j –materiallar zichligi.

Ko'p qatlamli silindrik qobiq tenglamalari (1) ni Grin Lemb almashtirish yordamida yechamiz. U holda oxirgi olingan tenglamadagi ko'chish vektori potentsialli va solenoidli ko'rinishda tasvirlanadi. Qatlamlarning ko'chishi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\vec{u}_j = \text{grad} \phi_j + \text{rot} \vec{\psi}_j, \quad \text{div} \vec{\psi}_j = 0, \quad (13)$$

Agar fazoviy ko'p qatlamli silindrik qobiq olinsa, u holda ko'chish potentsiallari tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$\nabla^2 \phi_j - \frac{1}{c_{pj}^2 \Gamma_{kj}} \frac{\partial^2 \phi_j}{\partial t^2} = 0; \quad \nabla^2 \psi_{zj} - \frac{1}{c_{sj}^2 \Gamma_{kj}} \frac{\partial^2 \psi_{zj}}{\partial t^2} = 0;$$

$$\nabla^2 \psi_\theta - \frac{\psi_\theta}{r^2} + \frac{2}{r^2} \frac{\partial \psi_r}{\partial \theta} - \frac{1}{c_s^2 \Gamma_k} \frac{\partial^2 \psi_\theta}{\partial t^2} = 0$$

$$\nabla^2 \psi_r - \frac{\psi_r}{r^2} - \frac{2}{r^2} \frac{\partial \psi_\theta}{\partial \theta} - \frac{1}{c_s^2 \Gamma_k} \frac{\partial^2 \psi_r}{\partial t^2} = 0 \quad (14)$$

Bu yerda

$$c_p^2 = \frac{\lambda_{01} + 2\mu_{01}}{\rho}; \quad c_s^2 = \frac{\mu_{01}}{\rho},$$

$$\Gamma_{kj} = 1 - \Gamma_j^c(\omega) - i\Gamma_j^s(\omega),$$

$$\Gamma_{\lambda j}^c = \Gamma_{\mu j}^c = \Gamma_j^c, \quad \Gamma_{\lambda j}^s = \Gamma_{\mu j}^s = \Gamma_j^s,$$

$$R_{\lambda j} = R_{\mu j} = R_j.$$

Yuqoridagi (14) tenglamaning yechimi quyidagicha izlanadi:

$$\left. \begin{aligned} \phi_j(r, \theta, z, t) &= \sum_{n=0}^{\infty} \varphi_{jn}(\alpha_j r) \begin{Bmatrix} \cos n \theta \\ -\sin n \theta \end{Bmatrix} e^{\pm i \gamma_p z} e^{-i \omega t}; \\ \psi_{rj}(r, \theta, z, t) &= \sum_{n=0}^{\infty} \psi_{rjn}(\beta_j r) \begin{Bmatrix} \sin n \theta \\ -\cos n \theta \end{Bmatrix} e^{\pm i \gamma_p z} e^{-i \omega t}; \\ \psi_{\theta j}(r, \theta, z, t) &= \sum_{n=0}^{\infty} \psi_{\theta jn}(\beta_j r) \begin{Bmatrix} \cos n \theta \\ -\sin n \theta \end{Bmatrix} e^{\pm i \gamma_p z} e^{-i \omega t}; \\ \psi_{zj}(r, \theta, z, t) &= \sum_{n=0}^{\infty} \psi_{zjn}(\beta_j r) \begin{Bmatrix} \sin n \theta \\ \cos n \theta \end{Bmatrix} e^{\pm i \gamma_p z} e^{-i \omega t}; \end{aligned} \right\} \quad (15)$$

Bunda n -butun son; γ_p - to'liqin tarqalishning o'zgarmas kattaligi; ω -kompleks chastota; $r = \frac{r_1}{a_0}$, $z = \frac{z_1}{a_0}$. Agar (15) ni (14) ga qo'ysak, quyidagicha oddiy differensial tenglamalarni olamiz:

$$\begin{aligned} \frac{d^2 \varphi_{jn}}{dr^2} + \frac{1}{r} \frac{d\varphi_{jn}}{dr} + \left(\alpha_j^2 - \frac{n^2}{r^2} \right) \varphi_{jn} &= 0; \\ \frac{d^2 \psi_{zjn}}{dr^2} + \frac{1}{r} \frac{d\psi_{zjn}}{dr} + \left(\beta_j^2 - \frac{n^2}{r^2} \right) \psi_{zjn} &= 0; \\ \frac{d^2 \psi_{\theta jn}}{dr^2} + \frac{1}{r} \frac{d\psi_{\theta jn}}{dr} + \frac{1}{r^2} (-n^2 \psi_{\theta jn} + 2n \psi_{\theta jn} - \psi_{\theta jn}) + \beta_j^2 \psi_{\theta jn} &= 0; \\ \frac{d^2 \psi_{rjn}}{dr^2} + \frac{1}{r} \frac{d\psi_{rjn}}{dr} + \frac{1}{r^2} (-n^2 \psi_{rjn} + 2n \psi_{\theta jn} - \psi_{rjn}) + \beta_j^2 \psi_{rjn} &= 0; \end{aligned} \quad (16)$$

Quyidagicha belgilashlar kiritilgan:

$$\alpha_j^2 = \frac{\bar{\Omega}_j^2}{\gamma_j^2} - \gamma_p^2; \quad \beta_j^2 = \bar{\Omega}_j^2 - \gamma_p^2; \quad \bar{\Omega}_j = \frac{\omega a_j}{\bar{c}_{sj}}; \quad \gamma_j^2 = \frac{2(1 - \nu_j)}{1 - 2\nu_j}.$$

Tenglamalarning yechimlari 1 va 2 jinsli n -tartibli Bessel va Xankel funksiyalari orqali ifodalanadi:

$$\begin{aligned} \phi_j &= \sum_{n=0}^{\infty} \left[A_{nj} H_n^{(1)}(\alpha_j r) + A'_{nj} H_n^{(2)}(\alpha_j r) \right] \cos n \theta e^{-i \omega t}, \\ \vec{\psi}_N &= \sum_{n=0}^{\infty} \left[\vec{M}_{nN} H_n^{(1)}(\beta_N r) + \vec{L}_{nN} H_n^{(2)}(\beta_N r) \right] \sin n \theta e^{-i \omega t}, \\ \vec{\psi}_j &= \sum_{n=0}^{\infty} \left[\vec{B}_{nj} H_n^{(1)}(\beta_j r) + \vec{B}'_{nj} H_n^{(2)}(\beta_j r) \right] \sin n \theta e^{-i \omega t}, \\ \phi_N &= \sum_{n=0}^{\infty} \left[C_{nN} H_n^{(1)}(\alpha_N r) + D_{nN} H_n^{(2)}(\alpha_N r) \right] \cos n \theta e^{-i \omega t}, \end{aligned} \quad (17)$$

bunda $A_{nj}, A'_{nj}, \vec{B}_{nj}, \vec{B}'_{nj}$ - ixtiyoriy o'zgarmas kattaliklar bo'lib, chegaraviy shartlardan topiladi; $H_n^{(1)}(\alpha_j r)$ va $H_n^{(2)}(\alpha_j r)$ - mos ravishda Xankel funksiyalari

$$H_n^{(1),(2)}(\alpha r) = J_n(\alpha r) \pm i N_n(\alpha r).$$

Ixtiyoriy o'zgarmaslarni topish uchun chegaraviy shartlar (3.3)-(3.6) dan foydalansak, bir jinsli bo'lmagan kompleks koeffitsiyentli algebraik tenglamalar sistemasini olamiz:

$$[C_2(c_{pj}, c_{sj}, R_{Ej}, a_j)]\{q\} = \{P_2\}, \quad (18)$$

bunda $\{q\}$ – vektor stolbes bo'lib ixtiyoriy o'zgaruvchilardan tashkil topgan; $\{R_1\}, \{R_2\}$ – tashqi tushadigan to'liq ta'siridagi vektor stolbes ; $[C_1], [C_2]$ – kvadrat matritsa, elementlari Bessel va Xankel funksiyalaridan tashkil topgan. Bu (18) kompleks koeffitsiyentli algebraik tenglamalar sistemasi Gaussning o'zgaruvchilarni ketma-ket yo'qotish usuli yordamida dissertatsiyada ishlab chiqilgan algoritm bilan yechilgan. Agar tashqi tushuvchi to'liq hisobga olinmasa, u holda qovushqoq elastik muhitda joylashgan sferik jismning erkin tebranishlar chastotalari topiladi. Bu holda (18) murakkab ko'rinishdagi kompleks transcendent funksiyalardan tashkil topgan algebraik tenglamani beradi. Buni esa faqat sonli usullar yordamida yechish mumkin. (18) tenglamani yechishda har bir integratsiya qadamida Gauss usuli qo'llaniladi. Shuning uchun aniqlovchini ko'p had ko'rinishda ifodalash talab etilmaydi. Kompleks ildizlarni topishda Myuller usulida o'ta aniqlikda tez topiladi va yaqinlashishni ta'minlanadi.

Noturg'un kuchlar ko'p qatlamli silindrik qobiqqa yuklanganda qo'yilgan masalani yechish uchun vaqt bo'yicha Laplasning integral almashtirishi qo'llaniladi ($0 < t < T_1$),

$$f^L(s) = \int_0^\infty e^{-st} f(t) dt = L[f(t)] \quad (19)$$

Teskari almashtirish, ya'ni orginalni topish uchun ($f^L(s)$ –tasvir, $f(t)$ –original) formuladan foydalanamiz. Teskari almashtirish quyidagi integral orqali amalga oshiriladi:

$$f(t) = \frac{1}{2\pi i} \int_{\gamma-i\infty}^{\gamma+i\infty} e^{st} f^L(s) ds = L^{-1}[f^L(s)]$$

Integral maxsus nuqtadan o'ng tomoga joylashgan yo'l bo'yicha olinadi.

Dissertatsiya ishida deformatsiyalanuvchan qattiq jism mexanikasining xususiy hosilali integro-differensial tenglamalarni yechish uchun “muzlatish”, o'zgaruvchilarni ajratish, Laplas, Myuller, va Gauss usullari qo'llanilgan. Matlab dasturi asosida yechiladi. Shunday qilib, bu bobda adabiyotlar taxlili, masalaning qo'yilishi va yechishning umumiy algoritmi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ko'p qatlamli dissipativ bir jinsli bo'lmagan to'liq o'tkazgichlarda xos to'liqlarning tarqalishi”** deb nomlangan uchinchi bobida garmonik xos to'liqlarning qovushqoq-elastik ko'p qatlamli silindrik qobiqlarda tarqalishi masalasi yechilgan. Dumaloq qovushqoq elastik silindrsimon qobiqning dispersiya munosabati $n > 1$ bo'lgan hol uchun quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\begin{aligned} & \left[\begin{pmatrix} \bar{L}_{11}(\omega_R, s, n) & \bar{L}_{12}(\omega_R, s, n) & \bar{L}_{13}(\omega_R, s, n) \\ \bar{L}_{21}(\omega_R, s, n) & \bar{L}_{22}(\omega_R, s, n) & \bar{L}_{23}(\omega_R, s, n) \\ \bar{L}_{31}(\omega_R, s, n) & \bar{L}_{32}(\omega_R, s, n) & \bar{L}_{33}(\omega_R, s, n) \end{pmatrix} + \right. \\ & \left. + \Omega^2 \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{pmatrix} \right] \begin{cases} U(s, n, \Omega) \\ V(s, n, \Omega) \\ W(s, n, \Omega) \end{cases} e^{i(\alpha x - \omega t)} e^{in\phi} = 0. \quad (20) \end{aligned}$$

Bu yerda

$$\Omega = \frac{\omega a}{c_L}, c_L = \left[\frac{E_0}{(\rho_0(1 - \nu_0^2))} \right]^{\frac{1}{2}}, s = \alpha a.$$


U holda differensial operator elementlari quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} \bar{L}_{11} &= \left(s^2 + \left[\frac{1 - \nu_0}{2} \right] (1 + \beta^2) n^2 \right) \Gamma_{11}(\omega_R), \bar{L}_{12} = \left(\left[\frac{1 + \nu_0}{2} \right] s \right) \Gamma_{12}(\omega_R), \\ \bar{L}_{13} &= -i \left(\left(\nu_0 - \left[\frac{1 - \nu_0}{2} \right] \beta^2 n^2 \right) s + \beta^2 s^3 \right) \Gamma_{13}(\omega_R), \\ \bar{L}_{22} &= \left(\left[\frac{1 - \nu_0}{2} \right] (1 + 3\beta^2) s^2 + n^2 \right) \Gamma_{22}(\omega_R), \\ \bar{L}_{23} &= -i \left(n + n \left[\frac{3 - \nu_0}{2} \right] \beta^2 s^2 \right) \Gamma_{23}(\omega_R), \\ \bar{L}_{33} &= \{ [1 + \beta^2(1 - 2n^2)] + \beta^2(s^4 + 2n^2s^2 + n^4) \} \Gamma_{33}(\omega_R). \end{aligned} \quad (21)$$


Yuqorida keltirilgan (21) tenglama dispersion munosabatni ifodalaydi. Bu tengamada qovushqoqlik parametrlari hisobga olinmasa, u holda

$$\begin{aligned} \Gamma_{11}(\omega_R) = \Gamma_{12}(\omega_R) = \Gamma_{13}(\omega_R) = \Gamma_{21}(\omega_R) = \Gamma_{22}(\omega_R) = \Gamma_{23}(\omega_R) = \\ = \Gamma_{31}(\omega_R) = \Gamma_{32}(\omega_R) = \Gamma_{33}(\omega_R) = 1 \end{aligned}$$

bo'ladi. Olingan natijalar asosida chastotaning eng kichik birinchi chastotasini beshta moddasi 2 va 3-rasmlarda to'liq soni va chastota orasidagi bog'liq o'zgarishi keltirilgan.



2-rasm. To'liq soni va chastota orasidagi bog'lanish (elastik sistema uchun)



3-rasm. To'liq soni va chastota orasidagi bog'lanish (qovushqoq-elastik sistema uchun) $A = 0,048$; $\beta = 0,05$; $\alpha = 0,1$; $\nu_0 = 0,33$.

Rasmda 1 – buralishdagi chastota bilan to‘lqin soni orasidagi munosabat, 2 – neosesimmetirik dispersimon munosabat haqiqiy qismi, 3 – bo‘ylama tebranishdagi chastota bilan to‘lqin soni orasidagi munosabat, 4 – ko‘ndalang tebranishdagi chastota bilan to‘lqin soni orasidagi munosabat, 5 – neosesimmetirik dispersion munosabat mavhum qismi rasmda tasvirlangan. O‘rganiladigan qovushqoq elastik materiallar uchun dyuralevoydan tayyorlangan qobiqlar hamda akrilondan foydalanilgan. Hisoblashlarda xos qiymatlarning absolyut xatoligi aniq tenglamalarga nisbatan $14 \cdot 10^{-6}$ atrofida bo‘ldi. Bu bobda silindrsimon qobiqdagi to‘lqin tarqalishining klassik muammosi qovushqoq-elastiklik xususiyatini hisobga olib ko‘rib chiqildi. Olingan natijalar analitik olingan natijalar bilan solishtirildi. Solishtirish natijalari 10 % farq qilishi topildi. Qovushqoqlik parametrlarini hisobga olish xos tebranishlar chastotasining 5 % kamaytirishi topildi. Dissertatsiya ishida to‘rt qatlamli suyuqliksiz dissipativ bir jinsli va bir jinsli bo‘lmagan silindrik jismda to‘lqin tarqalishi masalasi ko‘riladi. U holda chegaraviy shartlar (ichki va tashqi chegaralari yuklanishdan ozod qilingan, ikki qatlam chegarasida qattiq mahkamlanganlik sharti) quyidagi ko‘rinishni egallaydi:

$$\begin{aligned}
 r = r_0: \quad & \sigma_{rr0} = 0; \quad \sigma_{r\theta 0} = 0; \quad \sigma_{rz0} = 0; \\
 r = r_1: \quad & u_{r1} = u_{r2}; \quad u_{\theta 1} = u_{\theta 2}; \quad u_{z1} = u_{z2}; \\
 & \sigma_{rr1} = \sigma_{rr2}; \quad \sigma_{r\theta 1} = \sigma_{r\theta 2}; \quad \sigma_{rz1} = \sigma_{rz2}; \\
